



UDK:638.2:339.5:930.25(575.1)

Ismoiljon N. NEMATOV

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: ismoilnematov977@gmail.com,

PhD J.Adilov taqrizi asosida

THE HISTORY OF SILK TRADE AND INDUSTRY IN UZBEKISTAN AS REFLECTED IN THE FUNDS OF THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN (1867–1941)

Annotation

This article analyzes documents related to the activities of the Central Asian branch of the USSR People's Commissariat for Foreign Trade, held in the funds of the National Archives of Uzbekistan, and highlights the history of the silk industry in Uzbekistan from 1867 to 1941 based on archival records. Furthermore, based on the files (folders) preserved in the National Archives of Uzbekistan, data concerning silk products cultivated and prepared within the territory of Uzbekistan are analyzed from the perspective of archival source studies and records management.

Key words: Turkestan, Khiva, Europe, National Archives of Uzbekistan, People's Commissariat for Foreign Trade, report, fund, file, document, protocol, export, import, silk.

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ ШЕЛКОВОЙ ТОРГОВЛИ И ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ФОНДАХ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА (1867-1941 ГГ.)

Аннотация

В данной статье анализируются документы, связанные с деятельностью Среднеазиатского отделения Народного комиссариата внешней торговли СССР, хранящиеся в фондах Национального архива Узбекистана. На основе архивных документов освещается история шелководческой промышленности Узбекистана в период 1867–1941 годов. Также на базе дел, хранящихся в НАУз, анализируются сведения о шелковой продукции, выращенной и заготовленной на территории Узбекистана, с точки зрения архивного источниковедения и документоведения.

Ключевые слова: Туркестан, Хива, Европа, Национальный архив Узбекистана, Народный комиссариат внешней торговли, отчет, фонд, дело, документ, протокол, экспорт, импорт, шелк.

O'ZMA FONDLARIDA O'ZBEKISTON IPAKCHILIK SAVDOSI VA SANOATI TARIXINI YORITILISHI (1867–1941-YILLAR)

Annatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) fondlarida saqlanayotgan SSSR Tashqi savdo xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'limi faoliyatiga oid hujjatlar tahlil qilingan bo'lib, respublikamizning 1867–1941-yillardagi ipakchilik sanoati tarixi arxiv manbalari asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zMA yig'majildlari asosida O'zbekiston hududida yetishtirilgan va tayyorlangan ipak mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv manbashunosligi hamda hujjatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Xiva, Yevropa, O'zbekiston Milliy arxivi, Tashqi savdo xalq komissarligi, hisobot, fond, yig'majild, hujjat, bayonnoma, eksport, import, ipak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ipakchilikni nafaqat sanoat tarmog'i, balki O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy turmush tarzi va madaniy merosining bir qismi sifatida shakllangan. Hozirgi vaqtda 1867–1941 yillarga oid arxiv hujjatlari O'zbekiston Milliy arxivida saqlanmoqda. Ipakchilik sanoati va sanoati tarixi arxiv hujjatlari asosida manbashunoslik va hujjatshunoslik jihatidan yaxlit tarixiy tadqiqot sifatida yoritilmagan. Hujjatlarni tahlil qilish asosiy axborotni yig'ishning keng qo'llaniladigan va samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tashqi savdo aloqalari barcha mamlakatlar iqtisodiyotining strategik muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston hududidan o'tuvchi savdo yo'llari qadimdan hozirgi kunga qadar Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy magistrallardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekiston o'zining boy tabiiy resurslari va salohiyati bilan ajralib turib, ushbu hududda yetishtirilgan hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon savdosida yetakchi o'rinlarni egallagan[1].

Turkiston o'ziga xos tarixiy ipakchilik markazi hisoblanib, bu yerda yuqori sifatli ipak beruvchi mahalliy tut ipak qurti zotlari yetishtirilgan.

«Turkestanskiye vedomosti» gazetasining 1871-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 60-yillarida Turkistonda ipak yetishtirish hajmi yiliga 100 000 pud xom ipakni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich o'sha davr mezonlari bo'yicha taxminan 1 500 000 pud ho'l pilla hosiliga teng ekanligi qayd etilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur davrda aholi ehtiyojlari uchun mahalliy sharoitda yetishtirilgan ipak qurti urug'laridan foydalanilgan. Mahalliy tut ipak qurtining, xususan, «Xiva» va «Vartanzi» navlari parvarishlangan bo'lib, ularning texnologik ko'rsatkichlari va ipak sifati eng yaxshi Yevropa navlaridan qolishmagan. XIX asrning 60-yillarida Yevropaning yetakchi ipak qurti urug'ini yetishtiruvchilari (keying o'rinlarda matinda grenerlari shaklida beriladi) Turkiston ipak qurti urug'iga (grenasiga) katta qiziqish bildirishgan.

Hujjatlarda keltirilishicha, ushbu davrda Yevropada tut ipak qurtining «pebrina» ya'ni «qora xol» epidemiyasi avj olgan, epidemiya sababli, xorijiy ipakchilik sanoati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bir necha yillar davomida Turkistonga «kasallikdan xoli» bo'lgan grena izlab safarlar uyushtirganlar[2].

Hisobot hujjatlariga ko'ra, shunday safarlardan biri 1863-yilda uch nafar italiyalikning tashrifi bayon etilgan bo'lib, safar davomida «Turkiston grenasining, xususan "Xiva" zotining kasalliklardan xoli ekanligi va uning a'lo sifatleri tufayli» amalga oshirilgani ta'kidlangan. Yevropada ipakchilik tanazzulga yuz tutgan o'sha yillarda, Buxoro va Turkiston qit'ani nafaqat «sog'lom grena» bilan, balki har yili o'n minglab pud xom ipak bilan ham ta'minlab turganligi qayd etilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1870-yillarda ipakchilik uchun dahshatli bo'lgan «pebrina» (qora xol) kasalligi Turkiston hududiga ham kirib kelgan, o'lkaning eng boy ipakchilik tarmog'ini to'liq tanazzulga uchragan. Keyinchalik hukumat yordam ko'rsatish maqsadida aholini sog'lom grena bilan ta'minlash uchun maxsus grenaj stansiyalarini ochishga qaror qilganligi qayd etilgan. Shuningdek, 1885-yilda Toshkentda birinchi grenaj stansiyasi ochilgan va 1888-yilda yana uchta stansiya — Yangi Marg'ilon (Farg'ona), Samarqand va Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) shaharlarida yangi stansiyalar ish boshlagan. Mazkur stansiyalarning ishlab chiqarish quvvati bor-yo'g'i 5 000 oltin grenani tashkil etgan, vaholanki, o'lkaning umumiy ehtiyoji 1 500 000 – 2 000 000 oltin grenaga teng ekanligi keltirilgan[3].

Shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish maqsadida 1871-yilda Toshkentda ipakchilik maktabi tashkil etilgan. Ammo, 10 yillik faoliyat davomida bor-yo'g'i 8 nafar mutaxassisni o'qitgan ushbu bilim yurti 1881-yilda o'z faoliyatini to'xtatganligi va aynan shu davr o'lkadagi eng qimmatli mahalliy tut ipak qurti zotlarining butunlay yo'qolib ketgan[4].

Ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya markazidagi yirik ipakni qayta ishlash sanoati birinchi jahon urushidan oldingi davrda yiliga 110 000 pud xom ipak iste'mol qilgan va unda 40 000

Yil	Grena miqdori (qutilarda)	Foiz hisobida (1913-yilga nisbatan)
1913 y.	210 000	100%
1914 y.	190 000	90,5%
1915 y.	200 000	95,2%
1916 y.	190 000	90,5%
1917 y.	150 000	71,5%
1918 y.	100 000	47,6%
1919 y.	11 165	5,3% [7]

Hujjatlarda keltirilishicha, Turkiston ASSRda ipakchilik sanoati milliyashtirilgan vaqtdan (1919-yildan) boshlab, qayta tiklana boshlagan. Ushbu davrda ipak qurti urug'ini (grena) jonlantirish dinamikasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi:

Yil	Grena miqdori (qutilarda)	Foiz hisobida (1913-yilga nisbatan)
1913 y.	210.000	100%
1919 y.	11,165	5,3%
1920 y.	30,612	14,5%
1921 y.	34,345	16,3%
1922 y.	52,038	24,7%
1923 y.	78,424	37,3%
1924 y.	102.000	48,5%
1925 y.	153,112	73%

Ma'lumotlarga ko'ra, Ipakchilik sohasini milliyashtirish natijasida bor-yo'g'i Farg'ona (Skobelov) va Qo'qondagi ikkita grenaj muassasasi hamda birinchi jahon urushidan oldingi narxlarda hisoblangan 500 000 rubl qiymatiga teng bo'lgan kichik ipak xomashyosi zaxirasini olgan. 1924-yilga kelib, ushbu tuzilma yirik tashkilot — Paxtachilik qo'mitasi huzuridagi ipakchilik sanoati bosh boshqarmasiga[8] (keying o'rinlarda matinda Туркшелк beriladi) aylangan. Jamiyatning kapitali 3 000 000 rublni tashkil etgan.

Yil	Grena miqdori (qutilarda)	Foiz hisobida (1913-yilga nisbatan)
1913 y.	120.000	100%
1919 y.	26.432	22%

nafar ishchi faoliyat yuritgan. Biroq, ushbu sanoat ehtiyojining 85-90% qismi xorijdan keltirilgan import xomashyo hisobiga qoplangan (qolgan 10-15% xomashyo Kavkazdan, va faqat 1% xomashyo Turkistondan, u ham bo'lsa pilla ko'rinishida keltirilgan). Rossiya ipakchilik sanoati o'z mamlakatida yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlash uchun deyarli hech qanday ipak o'rash fabrikalariga ega bo'lmagan. 1914-yilda Moskva hududida bor-yo'g'i 210 ta ipak o'rash stanogi ishlagan bo'lib, ularning umumiy yillik quvvati 2 500 dan 3 000 pudgacha bo'lgan ipakni tashkil etgan.

Shuningdek, Turkiston pilla hosilining yarmidan ko'pi (Kavkazda esa yarmi), o'z joyida qayta ishlash imkoniyati yo'qligi sababli, ipak o'rash uchun chet davlatlarga eksport qilingan. So'ngra ushbu xomashyo Moskva ipakni qayta ishlash zavodiga xorijiy marka ostida o'ralgan ipak (greja) holda qaytib kelgan. 1913-yilda (1914-yilgi hosildan boshlangan urush sababli to'liq foydalanib bo'lmagan) Turkiston hududidan jami 52 595 pud quruq pilla (taxminan 160 000 pud ho'l pilla) olib chiqilgan bo'lib, uning umumiy qiymati birinchi jahon urushidan oldingi narxlardan 3 million rubldan oshgan. Buning ichidan 49 000 pud yoki 93% qismi chet elga, Rossiya markaziga esa bor-yo'g'i 3 500 pud yoki 7% qismi yuborilgan[5].

O'zMAda saqlangan hujjatlar tahlil shuni ko'rsatadiki, birinchi jahon urushidan oldin Turkistonda ipkchilik sohasida nazorat yaxshi yo'lga qo'yilmagan, sifat jihatidan talabga javob bermagan pilla urug'lari ham import qilingan. Natijada, nazorat tizimi qat'iyroq bo'lgan Kavkaz bozorida sotilishi imkonsiz bo'lgan eng sifatsiz xorijiy grenalar Turkiston bozorlarida sotilgan[6].

Manbalarda qayd etilishicha, Turkiston sanoat ipakchiligini milliyashtirish davriga kelib to'liq halokat yuz tutgan. Ushbu holat quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Shuningdek, Grenaj korxonalarini soni: Milliyashtirish davridagi 2 ta muassasa o'rniga, 1924-yilda 7 ta, 1925-yilda esa 10 ta to'liq jihozlangan ipak qurti urug'chiligi muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ishlab chiqarish quvvati: 1924-yil uchun grena yetishtirish bo'yicha ishlab chiqarish dasturi 95 000 quti etib belgilangan, bu ko'rsatkich birinchi jahon urushidan oldingi davrdagi ishlab chiqarish hajmining qariyb 80 foizini tashkil etgan.

1925-yil ko'rsatkichlari: 1925-yilga kelib grena yetishtirish hajmi 129 168 qutiga yetkazildi, bu esa urushdan oldingi darajadan oshib, 107 foizni tashkil etgan.

1920 y.	34.638	28,8 %
1921 y.	18.112	15 %
1922 y.	31.499	26,2 %
1923 y.	65.600	54,7 %
1924 y.	95.000	80 %
1925 y.	129.168	107 %

Hisobot hujjatlariga ko'ra, 1919-yildagi milliy lashtirish natijasida meros bo'lib o'tgan, umumiy quvvati 5–6 ming pud ho'l pillaga teng bo'lgan ikkita grenaj muassasasidagi pilla quritish xonalari o'rniga, 1924-yilga kelib «Туркшелк» o'lka

bo'ylab 13 ta pilla quritish inshootlarini ishga tushirgan. Ularning umumiy quvvati 40 000 pudgacha bo'lgan ho'l pillani tashkil etganligi qayd etilgan.

Viloyatlar	sig'im pud hisobida
Tashkent	1.500 pud
Farg'ona (Skobelov)	10.000
Qo'qon	7.500
Namangan	5.000
Xo'jand	10.000
Andijon	3.000
Samarqand	1000
Poltoratsk	1.250
O'sh	600
Jami	40.000

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1924-yilga kelib ipakchilik qishloq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida o'z hajmi bo'yicha birinchi jahon urushidan oldingi darajaning 50 foizigacha tiklangan. Ushbu o'sish sur'ati sekinligiga sabab qilib 1919-yilgacha yo'qolib ketgan tuzorlarning qayta tiklanishi tabiiy ravishda sekin kechganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ipakchilik sanoatini 1930-yilga kelib birinchi jahon urushidan oldingi darajaga ko'tarilgan[9].

O'zMA hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1924-yil boshiga kelib «Туркшелк»ning umumiy moddiy holati quyidagi ko'rsatkichlar bilan izohlangan:

Asosiy kapital: 754 638 rubl 73 tiyin

«Туркшелк» mablag'lari: 952 579 rubl 44 tiyin

«Arkos»[15] AJ mablag'lari: 300 000 rubl

Jami aylanma kapital: 1 252 579 rubl 44 tiyin

UMUMIY BALANS: 2 007 218 rubl 17 tiyin[10]

«Туркшелк»ning 1924–1929-yillar davomida qo'shni davlatlarga grena eksport qilish ko'rsatkichi.

Qayerdan	Qutilar miqdori					
	1924y	1925y	1926y	1927y	1928y	1929y
Buxoro	3000	4000	5000	6000	8000	10000
Qoshg'ar	6572	10000	12000	15000	20000	250000
Eron	-	5000	6000	7000	10000	12000
Xorazm	-	1000	1500	2000	2500	3000
Jami	9572	20000	24500	30000	40500	50000

Ma'lumotlarga ko'ra, eksport dasturini hisobga olgan holda, 1924–1929-yillar davomida «Туркшелк» qisman chet eldan grena import qilishiga to'g'ri kelgan va ushbu import hajmi o'z ishlab chiqarishining o'sishi bilan mutanosib ravishda, 1924-yilda 24,7 foizdan 1929-yilga kelib 11,2 foizgacha bosqichma-bosqich kamayib borgan[11].

Shuningdek, «Туркшелк» tomonidan belgilangan Turkiston Respublikasi, Buxoro, Xorazm va qo'shni davlatlarni grena bilan ta'minlash rejasini bajarish uchun — o'zining shaxsiy grena ishlab chiqarishi bilan bir qatorda — har yili Fransiya, Italiya va Turkiyadan grena olib kirgan[12]:

Yili	qutilar miqdori	narxi	summa
1924r.	45.000	2-50	112.500
1925r.	44.500	2-50	111.250
1926r.	45.000	2-50	112.500
1927r.	38.500	2-50	96.250
1928r.	24.500	2-50	51.250
1929r.	-	-	-

Hujjatlarda qayd etilishicha, Turkiston ipakchiligining xorijiy grena importiga bo'lgan qaramligi, ipakchilikning o'sishiga, ya'ni o'lkada grena iste'moli ortishiga qaramasdan, bosqichma-bosqich kamayib borgan; ushbu ortib borayotgan talab shaxsiy ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga qondirilgan. Eksport bo'yicha Turkiston ASSR ipak qurtini boquvchilarini grena bilan ta'minlashdan tashqari,

«Туркшелк» o'z oldiga Buxoro, Xorazm, shuningdek, Turkiston ASSRga tutash bo'lgan va urushdan oldin ham grena bilan faqat Turkiston orqali ta'minlangan Qoshg'ar hamda Eron kabi davlatlarga grena eksport qilish vazifasini yuklagan[13].

«TURKSHELK» ning 1924–1929-yillarga mo'ljallangan qo'shni davlatlarga grena eksport qilish rejasi quyidagi jadvalda ifodalangan:

Yillar	Buxoro	Qoshg'ar	Eron	Xorazm	jami	narxi	Summa
1924y.	3000	6572	57	-	9572	4-50	43.074
1925y.	4000	10.000	5000	1000	20.000	4-	80.000
1926y.	5000	12.000	6000	1500	24.500	3-50	85.750
1927y.	6000	15.000	7000	2000	30.000	3-50	105.000

1928y.	8000	20.000	10.000	2500	40.500	3-	121.500
1929y.	10.000	25.000	12.000	3000	50.000	3-	150.000

Shuningdek, «Turkshelk» tomonidan tayyorlanadigan pillalar, birinchi navbatda, jamiyatning o'z ipak o'rash fabrikalarini xomashyo bilan ta'minlagan; qolgan pillalar esa qisman Markaziy ipakni qayta ishlash sanoati uchun Moskvaga, qisman xorijga — Italiya va Fransiyaga eksport qilingan va hunarmandchilik usulida o'ralgan ipak xomashyosi Eron va Rossiyaning markaziy hududlariga eksport qilingan[15].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi hujjatlar O'zbekistonning 1867-1941 yillardagi ipakchilik tarixini o'rganishda fundamental manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar tahlili ipakchilikning shunchaki qishloq xo'jaligi tarmog'i emas, balki mintaqaning iqtisodiy-siyosiy hayotini belgilovchi strategik soha bo'lganligini ko'rsatadi.

Hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan pilla urug'chilik stansiyalarining tashkil etilishi va Yevropa texnologiyalarining kirib kelishi mahalliy ipak sifatini oshirgan bo'lsa-da, iqtisodiy mustaqillikning cheklanishiga va mahalliy ipakchilik sanoati va savdosi bilan shug'ullanuvchilarning tashqi kapitalga qaram bo'lib qolishiga olib keldi.

1920-30-yillarda ipakchilikning "davlat monopoliyasi"ga o'tkazilishi, pillachilik kolxozlarining tashkil etilishi va Marg'ilon, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda yirik ipak yigiruv fabrikalarining barpo etilishi sohani modernizatsiya qildi. Biroq, bu jarayon ipakchilikning qadimiy an'anaviy maktablariga zarar yetkazdi.

ADABIYOTLAR

1. Choriyev, Sherzodjon. "O'zmadada saqlanayotgan O'zbekiston sssr tarixiy hujjatlar tashqi tahlili (1924-1941 yillar)." «ACTA NUUZ» 1.1.2. 1 (2024): 50-54.
2. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 1-varoq.
3. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 2-varoq.
4. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 4-varoq.
5. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 9-varoq.
6. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 10-varoq.
7. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 32-varoq.
8. O'zMA, R-8 fond, 1-ro'yxat, kirish qismi, 18-varoq.
9. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 34-35-varoqlar.
10. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 36-varoq.
11. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 44-varoq.
12. O'zMA, R-1 fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 74-75-varoqlar.
13. Choriyev, Sh. Sh. (2019). Archival documents on the healthcare system of the Turkestan ASSR.
14. Nematov, I. N. (2025). The establishment history, activities, and document description of the National Archive of Uzbekistan. American Journal of Multidisciplinary Bulletin, 3(3), 112–117.
15. Arcos Limited xususiy mas'uliyati cheklangan jamiyati Londonda 1920-yil 11-iyunda tashkil etilgan va 2024-yil 9-aprelda tugatilgan